

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) muayyan, layyoqat B) me'mor, be'mor
C) uddaburon, maddoh
D) marotaba, faravon

2. Qaysi gaplarda tire tinish belgisi bir xil punktuatsion qoida asosida qo'yilgan?

1. Kenja botir: "Dushmanga tiz cho'kib yashaganimdan ko'ra tik turib o'lganim yaxshi", – debdi.
2. Xalqimiz aytadi: "Ilmga – tunganmas xazinaga – faqat mashaqqat chekkanlargina erisha oladi".
3. Qizlar ham, bolalar ham – hammasi meni yaxshi ko'rishadi.
4. Juda ko'p yordam berdik – o'zida intilish yo'q.
5. O'sha ko'zoynakli ustozni – Anvar Ahmedovni – barcha kursdoshlarimiz yaxshi eslashadi.

- A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 5

3. Qaysi javobda sinonimik qator va shu sinonimik qatorga mansub bo'la oladigan so'zlar to'g'ri moslashtirib ko'rsatilgan?

1	huzur, shavq, ...	a	anduh
2	haybat, salobat, ...	b	yordam
3	madad, ko'mak, ...	c	ruh
4	g'am, qayg'u, ...	d	ulug'vorlik
		e	quvnoq
		f	gasht

- A) 1-f, 2-d, 3-b, 4-a B) 1-f, 2-d, 3-c, 4-a
C) 1-e, 2-d, 3-b, 4-a D) 1-f, 2-e, 3-b, 4-c

4. Berilgan qaysi gapdagi ko'p nuqta o'rnida **-dan** qo'shimchasini ham, **-ni** qo'shimchasini ham qo'llash mumkin?

- A) Nodirjon ovqat... tez-tez yedi-yu, ishlarini bitirish uchun ishxonasi tomon otladi.
B) Bu hunar bilan bolaligi... shugu'llangan yigit hozir dongdor ustaga aylangan.
C) Tanlovda quyidagi yo'nalishlar... nazarda tutuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar qabul qilinadi.
D) Bu gap... xabardor bo'lgan odamlar endi unga ta'na qilishlari mumkinligini o'ylab yuragi siqilib ketdi.

5. So'nggi yillarda ko'plab iste'dodli, bil. . . don yoshlar xorijga o'qi. . . uchun jo'na. . . ilmoqda, ular. . . yangi. . . ka intilish kuchli bo'ladi. Ushbu gapdagi nuqtalar o'rniga mos keluvchi qo'shimchalar haqidagi xato hukmni aniqlang.

- A) Ushbu gapda munosabat shakli qo'shimchasi tushib qolishi kuzatilgan.
B) Ushbu gapda fe'l yasovchi qo'shimchani tushib qolishi kuzatilgan.
C) Ushbu gapda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchani tushib qolishi kuzatilgan.
D) Ushbu gapda ot yasovchi qo'shimchani tushib qolishi kuzatilgan.

6. Quyidagi parcha haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatimiz kelajagi uchun javobgarlikni his qilishga qodir, barkamol va maqsad sari intiluvchan, serg'ayrat avlodni tarbiyalash borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.

- A) Barcha yasama otlar fe'ldan yasalgan.
B) Faqat narsa va o'rin-joy otlari ishtirok etgan.
C) Barcha otlar ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajargan.
D) Otning tuzilishiga ko'ra faqat bir turi ishtirok etgan.

7. I. Mashinani shu yerda to'xtatib keting, kech tushmay qishloqqa yetib olishim kerak.

II. Maktabga boray, siz so'ragan narsani topay, keyin aytishim mumkin, shoshiravermang.

III. Kelganimda dedilarki, bu yigit koni zarar, Ketmagimdan, oxir, ayt, bormi zarar, ketmoqdaman.

Quyidagi qaysi fe'l shakllari berilgan gaplarning har uchulasida ishtirok etgan?

- 1) orttirma nisbatdagi fe'l; 2) sof fe'l; 3) o'tgan zamon ma'nosidagi fe'l; 4) harakat nomi; 5) o'timli fe'l.
A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 4 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 3

8. Qaysi gapda **taxmin-gumon** ifodalash uchun qoʻllangan modal soʻz ishtirok etgan?

- A) Olimning barcha bayon etayotgan fikrlari ehtimollar nazariyasiga asoslangan edi.
- B) Yashash uchun kurashadiganlarni emas, balki iymon uchun kurashadiganlarni doʻst tut.
- C) Endi biroz toʻxtab dam olaylik, chamasi, yana ikki kun yuramiz, suv va oziq-ovqat ham oz qoldi.
- D) Haligi kishining sovuq qarashlaridan, norozi aftidan, keskin gapirishidan shubhada ekanligi sezilib turardi.

9. *Dunyoda goʻdak xandasi kabi sof, maʼsum narsa yoʻq.*

Ushbu gapdagi soʻzlarning bogʻlanishi haqida berilgan toʻgʻri hukmni aniqlang.

- A) Qismlari kelishik yordamida bogʻlangan soʻz birikmasi mavjud emas.
- B) Qismlari koʻmakchi yordamida bogʻlangan soʻz birikmasi mavjud.
- C) Soʻzlarning oʻzaro teng bogʻlanishi (soʻz qoʻshilmasi) mavjud emas.
- D) Ham otli, ham feʼlli soʻz birikmasi mavjud.

10. Qaysi javobda maqsad holi ishtirok etgan?


- A) Yoshligida koʻp yoʻtalgani uchun ota-onasi uni juda avaylar edi.
- B) Birga oʻynab oʻsgan dugonasini ham tanimaganiga noqulay ahvolga tushdi.
- C) Singlimga olgan kitoblarimdan bir nechtasini unga ham berdim.
- D) Olis togʻ bagʻriga lola tergani borgan bolalar yomgʻirda ivib qaytib kelishdi.

11. Quyidagi parcha haqidagi toʻgʻri hukmni aniqlang.

Yoshlikda egallangan bilim toshga oʻyib yozilgan naqshdir, yoshlikdan ilm olish uchun intilgan inson ulgʻayganda ham ilmni qadrlaydi.

- A) Egalar turli soʻz turkumlari bilan ifodalangan.
- B) Barcha toʻldiruvchilar hokim boʻlakka toʻgʻridan toʻgʻri tobelangan.
- C) Holning faqat bir maʼno turi ishtirok etgan.
- D) Aniqlovchilar ega hamda kesimga tobelangan.

12. Quyidagi tasvirga mos ravishda toʻgʻri shakllantirilgan ergash gapli qoʻshma gapni aniqlang.



- A) Kitob mutolaa qilish hamisha ijtimoiy tarmoqlardan maʼlumot olishga nisbatan foydaliroq mashgʻulot hisoblangan.
- B) Soʻnggi yillarda yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlarga boʻlgan qiziqishi ortib bormoqda, shuning uchun ular orasida kitob oʻqishga qiziqadiganlar soni kamaygan.
- C) Kitob mutolaasiga boʻlgan qiziqish ortib bormoqda, shuning uchun yoshlarimiz orasida ijtimoiy tarmoqlarda turli foydasiz mashgʻulotlar bilan shugʻullanishga boʻlgan ishtiyoq susaymoqda.
- D) Kitob mutolaasi – qiziqarli mashgʻulot, ammo keyingi paytda yoshlarimiz orasida ijtimoiy tarmoqlarga boʻlgan qiziqish ortib bormoqda.

13. Qaysi javobda “Ravshan” dostoni voqealari bayoni xato talqin qilingan?

- A) Voqealar soʻngida Shirvon yurtiga Aynoq kal podsho, ukalar esa vazir qilib tayinlanadi.
- B) Toʻrt aka-uka kallar mard, tanti, ziyrak va aqlli kishilar timsoli hisoblanadi.
- C) Aka-uka kallar kampir enaning iltimosi bilan Ravshanni qutqarishga bel bogʻlashgan edi.
- D) Goʻroʻgʻli Ravshanning Gulanorga sovchi boʻlib borish haqidagi iltimosini rad etadi.

14. Alisher Navoiy qalamiga mansub “Sab’ai sayyor” dostonining voqealari bayoni to’g’ri berilgan javobni aniqlang.
- A) Suhayl otasining yordami bilan chohdan qutuladi, Jobir va uning qo’l ostidagi barcha qaroqchilarni mardonavor jangda halok etib, uning bor xazinasini qo’lga kiritadi.
- B) Jobir kuzatuvchilari orqali shoh Navdarning shikorga o’ch ekanligini bilgach, hiyla-nayrang ishlatib uni o’z qo’shinidan uzoqlashtiradi va shohsiz qo’shinni yengib, qo’shinsiz qolgan Navdarni ham asir oladi.
- C) Mehr Suhaylning bog’dagi chohga tashlanganini bilgach, kanizaklariga chohni toptiradi va chohga sochlarini arqon o’rnida tashlab Suhaylni qutqaradi.
- D) Shoh Navdar maktub orqali Nu’mondan Jobirning qo’liga asir tushib qolgan Mehrni qutqarish uchun Suhaylni qo’shin bilan jo’natishini iltimos qiladi.
15. Abdulla Qahhor qalamiga mansub “O’g’ri” hikoyasi voqealar rivoji va umumiy mazmunidan kelib chiqib, hikoyadagi amaldorlar haqidagi to’g’ri izohni aniqlang.
- A) Hikoyadagi mahalliy amaldorlar aholi haqida to’g’ri ma’lumot bermaganlari uchun adolatparvar chor hukumati amaldorlari ham to’g’ri siyosat yurita olishmagan.
- B) Hikoyadagi barcha amaldorlar yurtni talon-toroj qiladilar, aholi boshiga tushgan kulfatdan o’z manfaatlarini uchun foydalanadilar.
- C) Hikoyadagi mahalliy amaldorlar yurtga qanchalik achinmasin, ular chor hukumati amaldorlariga qarshi bosh ko’tara olmaydigan insonlar sanaladi.
- D) Hikoya mazmuniga ko’ra hukumatning, yuqori lavozimdagilarning mahalliy aholi manfaati uchun xizmat qiluvchi buyruqlarini quyidagilarning amaldorlar to’g’ri amalga oshirmaganligi uchun aholi jabr ko’radi.
16. Sharof Boshbekovning “Temir xotin” tragediyasida Alomat tilidan: *“Bayram kunlari rayondagi namoyishdan bayroqcha ko’tarib o’tganingizga xursand bo’lib yuraverasiz. Majlislarda qo’l ko’tarish-u, chapak chalishni bilasiz, boshqa baloni ham bilmaysiz! Ko’pincha o’sha majlisda nima hal bo’layotganini tushunmaysiz!”* – deya asar qahramoni ruhiyati talqin qilinadi. Ushbu suhbat matnida muallifning qanday badiiy maqsadi ifodalangan?
- A) Muallif Qo’chqor misolida hayotning asl zavq-u shavqini, bayramlarning asl shukuhini his qila olmaydigan omi qishloq aholisini tanqid ostiga oladi.
- B) Muallif Qo’chqor misolida oddiy qishloq aholisi siyosiy savodxonlik darajasining pastligi, ularning kelajak haqidagi tasavvurlarining sayozligi achinarli hol ekanligini aytmoqchi bo’ladi.
- C) Muallif Alomatni mana shunday teran fikrlari, benuqson fazilatlarini, mehnatkashligi, odobi, aql va zakovatda erkaklar bilan teng bo’la olishi bilan o’zbek ayollariga o’rnak qilib ko’rsatmoqchi bo’ladi.
- D) Muallif Alomat misolida robotlar insonlardan aql va salohiyatda har qancha ustun bo’lmasin, ular insonlarning asl his-tuyg’ularini, shodlik va quvonch hissini tuya olmasligini ta’kidlagan.
17. *“Ko’rganing – seniki”, – der edi bobom, Ellarni, dillarni kerak ko’rishim. Ochilmagan qo’riq, noma’lum yulduz Bari-bari – mening ulushim.* She’riy parchadagi ajratib ko’rsatilgan so’zlar qanday mazmunni ifodalashga xizmat qilgan?
- A) lirik qahramonning o’z maqsadlariga bo’lgan ishonchsizligini
- B) lirik qahramonning amalga oshmagan anduh va armonlarini
- C) lirik qahramonning kelajakda ulkan ishlarni amalga oshirishga qasdlanganligini
- D) lirik qahramonning ishonuvchan va sodda ekanligini

18. Uilyam Shekspir qalamiga mansub “Hamlet” fojiasi voqealari qaysi javobda xato berilgan?
- A) Gertruda o‘g‘li Hamletni otasining ayanchli o‘limi uchun xiyonatkor amakisi Klavdiydan qasos olishga da’vat etadi.
 - B) Hamlet onasining xonasida gilam ortida bekinib turgan Poloniyni o‘ldirib qo‘yadi.
 - C) Poloniyning o‘g‘li Laert Hamletni duelga chaqiradi va sal yaralansa ham, o‘lishi uchun qilichini zaharlab qo‘yadi.
 - D) Klavdiy tug‘ishgan akasi – qonuniy qirolni xiyonatkorlarcha o‘ldiradi va mamlakat taxtini egallaydi.
19. Odil Yoqubov qalamiga mansub “Ulug‘bek xazinasi” romanida shahzoda Abdulatifning farmoniga muvofiq Ali Qushchining zindonga tashlanganligi bayon qilingan. Mavlono Ali Qushchining zindonga tashlanishi sababi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
- A) Ali Qushchi amaldorlar bilan til biriktirib, fitna uyushtirganlikda ayblanib zindonga tashlanadi.
 - B) Mavlono Ali Qushchi ustozlari Ulug‘bek singari yulduzlarga qarab rom ochish gunohida ayblanib zindonga tashlanadi.
 - C) Ali Qushchi Mirzo Ulug‘bek unga ishonib qoldirgan nodir kitoblar, oltin-u javohirlarni topib berish talabi bilan zindonga tashlanadi.
 - D) Ali Qushchi Nizomiddin Xomush bilan bo‘lgan suhbatda qilgan odobsizligi sabab zindonga tashlanadi.
20. Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida Sharafuddin Xodjayev Miryoqubning qaysi qilmishini: “Mencha, bu – millatga xiyonat!” – deya baholaydi?
- A) Akbarali mingboshining Zebiga erishishiga ko‘maklashganini
 - B) rus ayoliga – Maryamga uylanishni rejalashtirganini
 - C) qishloq yigitlarini gijgijlab Umaraliboy va Yodgorni do‘pposlatganini
 - D) Turkiston tarixiga oid noyob qo‘lyozma asarlarni chor hukumati amaldoriga sovg‘a qilganini

Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub g'azaldan olingan ushbu parchani o'qing va quyidagi ikkita topshiriqni bajaring.

*Boshimga yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.*

*Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.*

21. Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub ushbu parcha haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Ikkinchi baytda yor timsoli orqali shohlarga xos xususiyatlar aks ettirilgan bo'lib, shohning adolati quyosh nuriga qiyoslangan.
- B) Birinchi baytda oshiqning Farhod singari Besutun tog'iga borish istagida ekanligi ifodalangan.
- C) Ikkinchi baytda "Inson yaxshi bo'lsa, ishqqa muhtalo bo'ladi, yomon bo'lsa, ishq unga ravo ko'rilmaydi" degan fikr ifodalangan.
- D) Birinchi baytda "Boshimga g'am tushmasin desang, Farhod kabi Besutun tog'iga borgin" degan mazmun ifodalangan.

22. Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub ushbu parcha haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Mutlaq va muqayyad qofiya qo'llangan.
- B) Mubolag'a san'ati aks etgan.
- C) Radif mavjud emas.
- D) Unli va undosh tovush raviy vazifasini bajargan.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan mazkur she’riy parchani o’qing va quyidagi ikkita topshiriqni bajaring.

*Bo’ldi yaqinkim bu saxovat emas,
Ahli saxo* muni saxovat demas.*

*Yoyar anga supraki, ul och emas,
Berur anga to’nki, yalang’och emas.*

*Xizrg’a yetgach tutar obi hayot,
Misr shakarrezig’a* habbi nabot*.*

(ahli saxo* - saxovatli kishilar; shakarrez* - shakar sochuvchi, shakar tarqatuvchi; nabot* - novvot)

23. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu she’riy parchaning mazmuniga mos bo’lgan qaysi ma’lumot to’g’ri?

- A) Saxovatni isrof qilishdan farqlash lozimligi bayon qilingan.
- B) Yalang’och bo’lmagan odamlargina o’zgalarga to’n hadya qila oladi deyiladi.
- C) Har qanday saxovat isrofgarchilik sanalmasligi aytilgan.
- D) Hazrati Xizrning Misr shahriga borib obi hayot va shakarni qo’lga kiritgani bayon qilingan.

24. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu she’riy parcha haqidagi to’g’ri ma’lumotni toping.

- A) Ushbu parchada tanosib, ishtiyoq she’riy san’atlari qo’llangan.
- B) Ushbu parchada undosh tovush raviiy vazifasini bajargan emas.
- C) Ushbu parchadagi barcha baytlarda yig’iq radif qo’llangan.
- D) Ushbu parchada muqayyad qofiya mavjud emas.

Matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan quyidagi ikkita topshiriqni bajaring.

TAVSIYANOMA

1. Men, In'omova Adolatxon, 1980-yilda tug'ilganman. Hozirda Toshkent shahridagi 17-umumta'lim maktabi direktori lavozimida ishlayman.
2. Aliyeva Shahlo Mirsodiq qizi 2003-yilda tug'ilgan. U hozirda men rahbarlik qilayotgan maktabning 11-"B" sinfida tahsil oladi. Sh.M.Aliyeva – bilimli, tirishqoq, jamoatchilik ishlarida faol o'quvchi. U ustozlari va sinfdoshlari bilan munosabatlarda samimiyligi, kamtarligi va shirinsuxanligi bilan ajralib turadi. Sh.M.Aliyeva so'nggi yillarda ko'plab yutuqlarga erishdi, xususan, joriy yilda shahar va respublika miqyosidagi fan olimpiadalarida ishtirok etdi, she'rxonlik va adabiyot sohasiga oid turli ko'rik-tanlovlarda faxrli o'rinlarni egalladi. Uning bir nechta she'riy kitoblari chop etildi va yoshlar tomonidan sevib o'qilmoqda.
3. Sh.M.Aliyevaning kelajakda yurt ravnaqiga munosib hissa qo'sha oluvchi mutaxassis bo'lib yetishishiga ishonch bildiraman va uni shoira Zulfiya nomidagi mukofotga tavsiya etaman.

2020-yil 18-iyun

(imzo)

A.In'omova

25. Ushbu TAVSIYANOMA matnining raqamlab ko'rsatilgan bandleri mazmuniga oid to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Matnning ikkinchi qismida tavsiyanomani taqdim etishdan ko'zlangan maqsad bayon qilingan.
- B) Matnning har uchala qismida nomzod haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan.
- C) Matnning birinchi qismida mukofotga tavsiya etish shartlari bayon qilingan.
- D) Matnning birinchi qismida tavsiya beruvchi shaxs haqida ma'lumot mavjud.

26. Ushbu TAVSIYANOMA matnining 1-qismida ikkala tarafidan vergul bilan ajratilgan bo'lak haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) O'zidan avvalgi bo'lakning ma'nosini aniqlashtirgan.
- B) Murojaat qilingan shaxs nomini anglatgan.
- C) Sanalayotgan bir qancha tushunchalardan birini ifodalagan.
- D) Aytilgan fikrga munosabat ifodalash uchun xizmat qilgan.


27. Ushbu TAVSIYANOMA matniga asoslangan holda gapni to'g'ri davom ettiring.
Toshkent shahridagi 17-umumta'lim maktabining 11-"B" sinf o'quvchisi

- A) fan va sport sohasida yurt ravnaqiga munosib hissa qo'sha olgan
- B) 2019-2020-o'quv yilida ona tili va adabiyot fanidan respublika bosqichida birinchi o'rinni egallagan
- C) Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori bo'lgan
- D) iqtidori va erishgan yutuqlari tufayli davlat mukofotiga tavsiya etilgan

Matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

XOTIRA

1. Odam ko'rgan narsalarining qiyofasini, eshitgan yoki guvohi bo'lgan voqea-hodisalarni ma'lum vaqt eslab qoladi. Xotira biror kimsa, narsa yoki voqea-hodisa haqidagi yodda saqlangan taassurot bo'lib, u to'planib boradigan shaxsiy ... dir.
2. Odamlardagi xotira bir necha xil bo'ladi:
 - a) harakat xotirasi – turli harakatlar orqali yozish, sport mashqlarini bajarish, raqsga tushish, transport vositalarini boshqarish kabi amallarni eslab qolish;
 - b) obrazli xotira – odamlarning qiyofasi, tabiat manzaralari, ohang va hidni eslab qolish;
 - c) og'zaki xotira – o'qigan va eshitgan so'zlarni eslab qolish.
3. Olimlar tomonidan turli kasb egalarida qaysi xotira turi qay darajada rivojlanganligini aniqlash maqsadida ilmiy-psixologik tajriba o'tkazildi. Quyidagi diagrammada ana shu tajriba natijasi aks ettirilgan:



28. XOTIRA mavzusidagi ushbu matn mazmunida aks etgan fikrni aniqlang.

- A) Insonda xotiraning faqat ma'lum bir turi shakllangan bo'ladi va shunga asosan biror kasbni egallaydi.
- B) Insonda obrazli xotira yaxshi shakllangan bo'lsa, unda ijodkorlik qobiliyati ham bo'lishi mumkin.
- C) Inson ko'rgan narsalarining qiyofasini butun umr yodda saqlaydi.
- D) Insonda hamisha harakat xotirasi og'zaki xotiraga nisbatan sust bo'ladi.

29. XOTIRA mavzusidagi ushbu matnning 1-qismidagi ko'p nuqta o'rnida qo'llanishi lozim bo'lgan so'zni aniqlang.

- A) tajriba
- B) mahorat
- C) sinov
- D) ko'nikma

30. XOTIRA mavzusidagi ushbu matn va diagrammada aks etgan ma'lumotlarga asoslangan holda mazmunan xato shakllantirilgan gapni aniqlang.

- A) Ushbu diagrammada tarix fani o'qituvchisida ham obrazli, ham og'zaki xotira harakat xotirasiga nisbatan yaxshi ekanligi aks etgan.
- B) Ushbu diagrammada haydovchida harakat xotirasi og'zaki xotiraga nisbatan yaxshiroq ekanligi aks etgan.
- C) Ushbu diagrammada yozuvchida obrazli xotira og'zaki xotiraga nisbatan sust ekanligi aks etgan.
- D) Ushbu diagrammada rassomda obrazli xotira haydovchilarga nisbatan yaxshiroq ekanligi aks etgan.